



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 06 | pp. 101-108 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YENGIL SANOATIDA SIFAT BOSHQARUVI TIZIMINING HOZIRGI HOLATI



Ibroximova Zuhra Baxtiyor qizi

Tashkent davlat iqtisodiyot universiteti

Savdo ishi kafedrasida tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston yengil sanoatida sifat boshqaruvi tizimining hozirgi holati, uning rivojlanish tendensiyalari hamda korxonalar faoliyatidagi o'rni tahlil qilingan. Mamlakat iqtisodiyotida yengil sanoat eksportga yo'naltirilgan tarmoqlardan biri hisoblanib, xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlashda sifat menejmenti tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda ISO 9001 sifat menejmenti tizimi, umumiy sifat menejmenti (TQM) va zamonaviy sifat boshqaruvi yondashuolarining yengil sanoat korxonalarida qo'llanilish darajasi o'rganildi. Shuningdek, mahsulot sifati, ishlab chiqarish samaradorligi va eksport hajmi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari yengil sanoat korxonalarida sifat boshqaruvi tizimlarini joriy etish mahsulot nuqsonlarini kamaytirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Maqolada sifat menejmenti tizimini takomillashtirishga to'siq qilayotgan omillar ham aniqlangan. Jumladan, ayrim korxonalarda zamonaviy standartlarning to'liq joriy etilmaganligi, malakali mutaxassislar yetishmasligi va raqamlashtirish darajasining pastligi asosiy muammolar sifatida baholangan. Tadqiqot yakunida yengil sanoat korxonalarida sifat boshqaruvi tizimini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sifat boshqaruvi, sifat menejmenti, ISO 9001, TQM, yengil sanoat, raqobatbardoshlik, eksport salohiyati, mahsulot sifati, innovatsiyalar, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligi.

Abstract: This article analyzes the current state of the quality management system in the light industry of Uzbekistan, its development trends, and its role in the activities of enterprises. Light industry is one of the export-oriented sectors in the country's economy, and quality management systems play an important role in ensuring competitiveness in international markets. The study studied the level of application of the ISO 9001 quality management system, total quality management (TQM), and modern quality management approaches in light industry enterprises. The relationship between product quality, production efficiency, and export volume was also analyzed. The results of the study showed that the introduction of quality management systems in light industry enterprises helps to reduce product defects, optimize production costs, and increase export potential. The article also identifies factors that hinder the improvement of the quality management system. In particular, the incomplete implementation of modern standards in some enterprises, the lack of qualified specialists, and the low level of digitalization were assessed as the main problems. As a result of the research, scientific and practical recommendations were developed for the development of a quality management system at light industry enterprises.

Keywords: quality management, quality management system, ISO 9001, TQM, light industry, competitiveness, export potential, product quality, innovation, standardization, certification, production efficiency.

Аннотация: В данной статье анализируется текущее состояние системы управления качеством в легкой промышленности Узбекистана, тенденции ее развития и роль в деятельности предприятий. Легкая промышленность является одним из экспортно-ориентированных секторов экономики страны, и системы управления качеством играют важную роль в обеспечении конкурентоспособности на международных рынках. В исследовании изучался уровень применения системы управления качеством ISO 9001, системы всеобщего управления качеством (TQM) и современных подходов к управлению качеством на предприятиях легкой промышленности. Также была проанализирована взаимосвязь между качеством продукции, эффективностью производства и объемом экспорта. Результаты исследования показали, что внедрение систем управления качеством на предприятиях легкой промышленности способствует снижению брака продукции, оптимизации производственных затрат и увеличению экспортного потенциала. В статье также определены факторы, препятствующие совершенствованию системы управления качеством. В частности, в качестве основных проблем были оценены неполное внедрение современных стандартов на некоторых предприятиях, нехватка квалифицированных специалистов и низкий уровень цифровизации. В результате исследования были разработаны научно-практические рекомендации по развитию системы управления качеством на предприятиях легкой промышленности.

Ключевые слова: управление качеством, ISO 9001, TQM, легкая промышленность, конкурентоспособность, экспортный потенциал, качество продукции, инновации, стандартизация, сертификация, эффективность производства.

Kirish

Global iqtisodiyotning jadallashuvi va xalqaro savdo aloqalarining kengayishi sharoitida mahsulot sifati korxonalarining raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylandi. Ayniqsa, yengil sanoat tarmog'i yuqori darajadagi raqobat muhiti bilan ajralib turib, korxonalaridan sifatni boshqarishning zamonaviy usullarini qo'llashni talab etmoqda. Jahon amaliyotida sifat boshqaruvi tizimlari korxonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik boshqaruv vositasi sifatida qaraladi.

O'zbekiston iqtisodiyotida yengil sanoat muhim eksport salohiyatiga ega bo'lgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda davlat tomonidan to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, mahsulotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish hamda eksport hajmini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada xalqaro standartlar asosida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni ortib bormoqda. Biroq, ayrim korxonalarda sifat menejmenti tizimining samarali ishlamasligi, mahsulot sifatining barqaror emasligi va ishlab chiqarish jarayonlarida sifat nazoratining yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi kuzatilmoqda. Bu esa ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni pasaytiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

Shu munosabat bilan yengil sanoat korxonalarida sifat boshqaruvi tizimining amaldagi holatini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish

yo'llarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston yengil sanoatida sifat boshqaruvi tizimining hozirgi holatini tahlil qilish hamda uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Sifat menejmenti nazariyasi va amaliyoti bo'yicha ilmiy tadqiqotlar uzoq yillar davomida rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, yengil sanoat va to'qimachilik korxonalarida sifat boshqaruvi tizimlarini joriy etish masalalari xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan.

Xorijiy olimlardan W. Edwards Deming sifat menejmentining zamonaviy konsepsiyasiga asos solgan tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. Uning "Out of the Crisis" asarida sifatni uzluksiz takomillashtirish, statistik nazorat va PDCA (Plan-Do-Check-Act) siklidan foydalanish korxonada samaradorligini oshirishning muhim vositasi sifatida baholangan [1]. Deming sifatni yaxshilash orqali xarajatlarni kamaytirish, ishlab chiqarish unumdorligini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish mumkinligini ilmiy asoslab bergan [1].

Joseph M. Juran tomonidan ishlab chiqilgan "Juran Trilogy" konsepsiyasi sifatni rejalashtirish, sifatni nazorat qilish va sifatni takomillashtirish bosqichlarini o'z ichiga oladi [2]. Juran sifat menejmentini korxonada strategiyasi bilan integratsiyalash zarurligini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlarida sifat ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilish va iste'molchilar talablariga moslashtirish korxonada muvaffaqiyatining asosiy omili sifatida ko'rsatilgan [2]. Philip B. Crosby o'zining "Quality is Free" asarida sifatni ta'minlash qo'shimcha xarajat emas, balki korxonada xarajatlarni kamaytiruvchi omil ekanligini asoslab bergan [3]. Olim tomonidan ilgari surilgan "Zero Defects" konsepsiyasi nuqsonsiz ishlab chiqarishni tashkil etish orqali mahsulot sifatini oshirishga qaratilgan [3].

Kaoru Ishikawa sifatni boshqarishda xodimlarning ishtiroki va jamoaviy yondashuvning ahamiyatini asoslab bergan [4]. Uning sabab-oqibat diagrammasi (Fishbone Diagram) ishlab chiqarishdagi nuqsonlarning ildiz sabablarini aniqlashda keng qo'llaniladi. Ishikawa sifat to'garaklari (Quality Circles) orqali korxonalarda uzluksiz takomillashtirish madaniyatini shakllantirish zarurligini ta'kidlagan [4].

To'qimachilik sanoatida sifat menejmenti tizimlarini qo'llash bo'yicha Wolfgang Topf tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Olimning "Quality Management for the Textile Industry" nomli ilmiy ishida to'qimachilik korxonalarida sifatni boshqarish avtomobil sanoatidagi ilg'or tajribalar asosida tashkil etilishi lozimligi ko'rsatib berilgan [8]. Tadqiqotda sifat sertifikatlashtirish tizimlari va standartlashtirishning eksport salohiyatiga ta'siri tahlil qilingan [8].

Karthi, Devadasan va hamkorlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ISO 9001 standarti asosida Lean va Six Sigma usullarini joriy etish orqali to'qimachilik korxonalarida nuqsonlar soni kamayishi hamda ishlab chiqarish samaradorligi oshishi ilmiy jihatdan asoslangan [9]. Mualliflar sifat menejmenti tizimi va operatsion samaradorlik o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini aniqlaganlar [9]. Zimon, Madzik va Sroufe tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda ISO 9001 va ISO 14001 standartlarining to'qimachilik korxonalarida ta'minot zanjiri samaradorligiga ta'siri baholangan [10]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xalqaro sifat standartlarini joriy etgan korxonalarda mahsulot sifatini, ekologik barqarorlik va eksport raqobatbardoshligi yuqori bo'lgan [10].

TQM yondashuvi bo'yicha umumiy nazariy va amaliy tadqiqotlarda sifat menejmenti, jarayonlarni boshqarish, bozor talablariga moslashuv va korxonalar natijalari o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligi asoslab berilgan [6; 7].

Mahalliy olimlardan R.A. Isaev tomonidan korxonalarda strategik boshqaruv va raqobatbardoshlikni oshirish masalalari tadqiq etilgan [13]. Olim sifat boshqaruvi korxonalar strategiyasi bilan uyg'unlashgandagina raqobatbardoshlikni oshirish mumkinligini ta'kidlaydi [13]. N. Xalilov va N. Safina tadqiqotlarida O'zbekiston to'qimachilik sanoatida raqamlashtirish jarayonlari sifat menejmenti tizimining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan [12]. Mualliflarning fikricha, raqamli texnologiyalar sifat nazoratining aniqligini oshiradi va korxonalarining xalqaro bozordagi pozitsiyasini mustahkamlaydi [12]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlarini baholashda muhim axborot bazasi bo'lib xizmat qiladi [14].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy va mahalliy ilmiy manbalarda sifat menejmentining nazariy asoslari yetarlicha yoritilgan bo'lsa-da, O'zbekiston yengil sanoati korxonalarida sifat boshqaruvi tizimining amaldagi holatini kompleks baholash, xalqaro standartlar joriy etilish darajasi va ularning eksport samaradorligiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi. Mazkur holat ushbu tadqiqotning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston yengil sanoati korxonalarida sifat boshqaruvi tizimining amaldagi holatini baholash hamda uning ishlab chiqarish samaradorligi va eksport faoliyatiga ta'sirini aniqlash maqsadida ilmiy bilishning bir qator zamonaviy usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, O'zto'qimachilik sanoat uyushmasi, International Organization for Standardization ma'lumotlari, shuningdek, yengil sanoat korxonalarining ochiq statistik hisobotlari tashkil etdi.

Tadqiqot davomida quyidagi usullardan foydalanildi:

monografik tahlil usuli – sifat menejmenti bo'yicha xorijiy va mahalliy ilmiy manbalarni o'rganishda;

qiyosiy tahlil usuli – ISO 9001 standartini joriy etgan va etmagan korxonalar faoliyatini taqqoslashda;

dinamik qatorlar tahlili – 2020–2025 yillarda sifat ko'rsatkichlari o'zgarishini baholashda;

tarkibiy tahlil usuli – mahsulot tannarxida sifat xarajatlari ulushini aniqlashda;

omilli tahlil usuli – sifat tizimining eksport va ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini baholashda;

grafik tahlil usuli – aniqlangan tendensiyalarni vizual ifodalashda.

Tadqiqot natijalarini shakllantirishda sifat boshqaruvi tizimi samaradorligini tavsiflovchi asosiy indikatorlar sifatida ISO 9001 sertifikatiga ega korxonalar ulushi, nuqsonli mahsulotlar darajasi, eksport hajmi, mehnat unumdorligi va sifat bilan bog'liq xarajatlar ko'rsatkichlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama

O'zbekiston yengil sanoatida sifat boshqaruvi tizimining rivojlanish dinamikasi. So'nggi yillarda yengil sanoat korxonalarida xalqaro sifat standartlarini joriy etish bo'yicha sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda.

1-jadval

2020–2025 yillarda yengil sanoat korxonalarida sifat boshqaruvi tizimi ko'rsatkichlari


Yillar	ISO 9001 joriy qilgan korxonalar soni	Nuqsonli mahsulot ulushi (%)	Eksport hajmi (mlrd AQSH dollari)
2020	280	6,8	1,9
2021	315	6,1	2,2
2022	360	5,4	2,8
2023	415	4,7	3,1
2024	470	4,1	3,6
2025	525	3,5	4,0

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, ISO 9001 standartini joriy etgan korxonalar soni 2020–2025 yillarda 87,5 foizga oshgan. Shu bilan birga nuqsonli mahsulotlar ulushi 6,8 foizdan 3,5 foizgacha kamaygan. Mazkur holat sifat menejmenti tizimining amaliy samaradorligini ko'rsatadi.

1-rasm.

2020–2025 yillarda ISO 9001 standartini joriy etgan yengil sanoat korxonalarini sonining o'sish dinamikasi



Manba: Mualliflik ishlanmasi.

Rasmda ko'rinib turibdiki, sifat menejmenti tizimlarining joriy etilish sur'ati yil sayin ortib bormoqda.

Sifat boshqaruvi tizimining ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri. Tadqiqot davomida ISO 9001 sertifikatiga ega va ega bo'lmagan korxonalar ko'rsatkichlari taqqoslandi.

2-jadval

Korxonalar faoliyati ko'rsatkichlari taqqoslanishi (2025 yil)

Ko'rsatkich	ISO 9001 mavjud	ISO 9001 mavjud emas
Mehnat unumdorligi (mln so'm/xodim)	186	142
Nuqsonli mahsulot (%)	3,5	8,7
Eksport ulushi (%)	62	37
Rentabellik (%)	18,4	11,2

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sifat menejmenti tizimi joriy qilingan korxonalarda mehnat unumdorligi 31 foizga, rentabellik esa 64 foizga yuqori bo'lgan.

Sifat xarajatlari tarkibining tahlili

3-jadval

Xarajat turi	Ulushi (%)
Profilaktik xarajatlar	28
Nazorat xarajatlari	24
Ichki nuqson xarajatlari	31
Tashqi nuqson xarajatlari	17

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan.

Korxonalarda sifatni ta'minlash xarajatlari tarkibi ham o'rganildi. Tahlil natijalariga ko'ra, sifat xarajatlarining asosiy qismi ichki nuqsonlarni bartaraf etishga sarflanmoqda. Bu esa korxonalarda profilaktik tadbirlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

4-jadval

Eksport hajmiga ta'sir etuvchi omillar

Omillar	Ta'sir darajasi (%)
Mahsulot sifati	35
Xalqaro sertifikatlash	27
Texnologik modernizatsiya	22
Marketing faoliyati	10
Boshqa omillar	6

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan.

Sifat boshqaruvi tizimining eksport faoliyatiga ta'siri quyidagi omillar orqali baholandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, eksport hajmiga eng katta ta'sir mahsulot sifati va xalqaro sertifikatlash tizimlari orqali yuzaga kelmoqda.

Muhokama

Olingan natijalar Deming, Juran va Crosby tomonidan ishlab chiqilgan sifat menejmenti konsepsiyalarini [1; 2; 3] amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Xususan, ISO 9001 standartlarini joriy etgan korxonalarda nuqsonli mahsulot ulushining kamayishi hamda mehnat unumdorligining ortishi Demingning uzluksiz takomillashtirish tamoyillariga mos keladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari Zimon va hamkorlarining sifat menejmenti tizimlari [10] eksport samaradorligini oshirish haqidagi xulosalari bilan hamohangdir. Mahalliy yengil sanoat korxonalarida sifat boshqaruvi tizimlarining rivojlanishi eksport geografiyasining kengayishiga, mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligining ortishiga va korxonalar moliyaviy natijalarining yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Biroq ayrim korxonalarda sifat xarajatlarining katta qismi nuqsonlarni bartaraf etishga sarflanayotganligi profilaktik sifat boshqaruvi mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu sababli yengil sanoat korxonalarida ISO 9001, TQM va Lean Management elementlarini kompleks joriy etish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari O'zbekiston yengil sanoatida sifat boshqaruvi tizimlarining rivojlanishi so'nggi yillarda sezilarli darajada faollashganligini ko'rsatdi. Tahlillar natijasida 2020–2025 yillar davomida ISO 9001 standartini joriy etgan korxonalar soni ortib borishi bilan bir qatorda nuqsonli mahsulotlar ulushi kamaygani, mehnat unumdorligi va eksport hajmi esa oshgani aniqlandi. Bu holat sifat menejmenti tizimining korxonalar faoliyati samaradorligiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida qo'llanilgan qiyosiy va omilli tahlillar sifat boshqaruvi tizimi mavjud bo'lgan korxonalarda rentabellik, eksport salohiyati va mahsulot sifati ko'rsatkichlari yuqoriroq ekanligini ko'rsatdi. Xususan, xalqaro sertifikatlash tizimlari korxonalarining tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Sifat xarajatlari tarkibining tahlili korxonalarda ichki nuqsonlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan xarajatlar ulushi yuqoriligini ko'rsatdi. Bu esa sifat muammolarini yuzaga kelgandan keyin emas, balki ularning oldini olishga qaratilgan profilaktik boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini anglatadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- yengil sanoat korxonalarida ISO 9001 xalqaro standartini joriy etish darajasini kengaytirish;
- sifat ko'rsatkichlarini monitoring qilishning raqamli tizimlarini rivojlantirish;
- TQM (Total Quality Management) va Lean Management tamoyillarini ishlab chiqarish amaliyotiga integratsiyalash;
- xodimlarning sifat menejmenti bo'yicha malakasini oshirish dasturlarini kengaytirish;
- eksportyor korxonalarini xalqaro sertifikatlash xarajatlarini qisman subsidiyalash mexanizmlarini takomillashtirish.

Umuman olganda, sifat boshqaruvi tizimlarini takomillashtirish O'zbekiston yengil sanoatining raqobatbardoshligini oshirish, eksport hajmini ko'paytirish va xalqaro bozorlardagi mavqeini mustahkamlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Deming W.E. Out of the Crisis. – Cambridge, MA: MIT Press, 1986. – 507 p.
2. Juran J.M., Godfrey A.B. Juran's Quality Handbook. – 6th ed. – New York: McGraw-Hill, 2010. – 1136 p.
3. Crosby P.B. Quality is Free: The Art of Making Quality Certain. – New York: McGraw-Hill, 1979. – 309 p.
4. Ishikawa K. What Is Total Quality Control? The Japanese Way. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1985. – 215 p.
5. Feigenbaum A.V. Total Quality Control. – 3rd ed. – New York: McGraw-Hill, 1991. – 863 p.
6. Evans J.R., Lindsay W.M. Managing for Quality and Performance Excellence. – 11th ed. – Boston: Cengage Learning, 2019. – 848 p.
7. Oakland J.S. Total Quality Management and Operational Excellence. – 5th ed. – London: Routledge, 2014. – 548 p.
8. Topf W. Quality Management for the Textile Industry // Autex Research Journal. – 2013. – Vol. 13(4). – P. 145–152.
9. Karthi S., Devadasan S.R., Muruges R. Implementation of Lean Six Sigma through ISO 9001:2008 based QMS: A Case Study in a Textile Mill // Journal of Industrial Engineering and Management. – 2011. – Vol. 4(2). – P. 321–345.
10. Zimon D., Madzik P., Sroufe R. Management Systems and Improving Supply Chain Processes in Textile Industry // Sustainability. – 2020. – Vol. 12(10). – P. 4282.
11. ISO 9001:2015. Quality Management Systems – Requirements. – Geneva: International Organization for Standardization, 2015.
12. Xalilov N., Safina N. Digitalization as the Main Factor in the Development of the Quality Management System of the Textile Industry of the Republic of Uzbekistan // International Journal of Advanced Research. – 2023. – Vol. 11(7). – P. 215–223.
13. Isaev R.A. Korxonalarda strategik boshqaruv va raqobatbardoshlikni oshirish masalalari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 248 b.
14. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining sanoati. Statistik to'plam. – Toshkent, 2024. – 286 b.

Copyright: ©2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

